

Oybekning “Navoiy” romani xususida

Go'zal Erkinovna Xalikulova

Annotatsiya: Sahna nutqining asosiy xususiyatlari egiluvchanlik, balandlik, jarangdorlik, ovoz balandligi, shuningdek, to'g'ri nafas olish texnikasi, aniqlik, talaffuzning ravshanligi, intonatsiya ekspressivligidir. Y.Ahmedovning Navoiy obrazini yaratish jarayonining oson tomoni buyuk aktyorlar bilan birga aynan mana shu rol ustida tinimsiz ishlagani, ommaviy sahnalarda qatnashib, ular bilan ko'p suhbatda bo'lgani bo'lsa, qiyin tomoni - Olim Xo'jayevning aktyorlik mahorati va sahna nutqining ustasi sifatida tan olinib, shoirning timsoli sifatida tomoshabin yuragiga muhrlanib qolgan, undan keyin qanday qilib bu rolga qo'l urish mumkinligi va nimalarga e'tibor berish kerakligi masalasini hal qilish bo'ldi.

Kalit so'zlar: Navoiy obrazi, aktyorlik mahorati, sahna nutqi, spektakl, ustoz, shogird, obraz yaratish, rol, “Alisher Navoiy” spektakli

About Oybek's novel “Navoi”

Gozal Erkinovna Khalikulova

Abstract: The main characteristics of stage speech are flexibility, pitch, sonority, volume, as well as the correct breathing technique, accuracy, clarity of pronunciation, expressiveness of intonation. The easy part of the process of creating the image of Yu. Olima Khodzhaeva was recognized as a master and imprinted in the heart of the viewer as a symbol of the poet, after which the question was how to get this role and what to pay attention to.

Keywords: image of Navoi, acting skills, stage speech, performance, teacher, student, image creation, role, performance of Alisher Navoi

Ko'pincha, yaqin kelajakda ommaviy nutq so'zlaydigan odamlar (biznes muzokaralarida, tantanali tadbirda yoki boshqa joyda) bu haqda tashvishlanadilar va tashvishlanadilar. Darhaqiqat, eng yorqin g'oya, tost, ilmiy izlanishlar, hazil iboralar ham so'zlashuv, fikrlardagi chalkashlik, izchil semantik zanjirning yo'qligi tufayli tomoshabin tomonidan qabul qilinmasligi mumkin. Va keyin jim bo'lish qoladi, ko'proq "lingvistik" hamkasblar oddiy va aniq narsalarni ta'kidlaydilar.

80-yillarda suratga olingan Oybekning “Navoiy” romani asosidagi ko'p qismli videofilmda Navoiyni Yoqub Ahmedov o'ynagan edi. Bunda ham ustozlaridan olgan tajribalari qo'l kelgan edi.

Y.Ahmedovning Navoiy obrazini yaratish jarayonining oson tomoni buyuk aktyorlar bilan birga aynan mana shu rol ustida tinimsiz ishlagani, ommaviy sahnalarda qatnashib, ular bilan ko'p suhbatda bo'lgani bo'lsa, qiyin tomoni - Olim Xo'jayevning aktyorlik mahorati va sahna nutqining ustasi sifatida tan olinib, shoirning timsoli sifatida tomoshabin yuragiga muhrlanib qolgan, undan keyin qanday qilib bu rolga qo'l urish mumkinligi va nimalarga e'tibor berish kerakligi masalasini hal qilish bo'ldi. Albatta, T.Azizov sahnalashtirgan spektaklni ko'rgandan so'ng, aktyorni obraz talqinida o'ziga xos izlanishlarning samarasini guvohi bo'lish mumkin.

Spektaklning oxirgi ko'rinishi, ya'ni Navoiy bilan Husayn Boyqaroning uzoq ayriliqdan so'ng uchrashadigan sahnasida Y.Ahmedov ijrosini alohida tilga olish o'rinli. Navoiyning Mo'minmirzoning o'limini eshitganidan so'ng, uning achchiq iztiroblari, saroydagi yaxshi odatlar buzilganidan chekkan afsus-nadomatlar aktyor nutqda o'z ifodasini topgan.

Z.Muhammadjonov ham Navoiy obrazini yaratishda o'zining kuzatuvlariga tayanadi. Boshqalar qatori Z.Muhammadjonov ham "Alisher Navoiy" spektakli ustida ishlash jarayonlarini kuzatgan. Uni, ayniqsa rejissor bilan aktyorning so'z ustida ishlash jarayoni qiziqtirgan. Mannon Uyg'ur va Olim Xo'jayevning she'riy misralardagi so'zlarning qaysi biri asosiy, qaysi biri ikkinchi darajali ekani, mantiqiy urg'uning ahamiyati va talaffuz me'yori ustidagi tortishuvlarni o'ta qiziqish bilan bir chetda o'girib kuzatar ekan, e'tibordan birorga so'z, birorga tinish belgisi qolib ketmayotgani, hamma so'zlarning tub ma'nosi to'la ochilib nihoyatda kuchli dard bilan ijro qilinayotganini ko'rib hayron qodar ekan Z.Muhammadjonov o'z xotiralarida: "Spektakldagi muomala madaniyati nutq ohangi kishini e'tiborini tortadi... Ustoz (O.Xo'jayev) aktyorlik texnikasini puxta egallagan edi", - deb yozadi. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki Z.Muhammadjonov ham so'zlarning xatti-harakatiga e'tibor bergan Navoiyning oliyjanob qalb egasi ekanligini ta'kidlagan.

Endi rejissor T.Azizovning yana bir amalga oshirmoqchi bo'lgan maqsadi, ya'ni shoh va shoir o'rtasidagi do'stlikni tiklash masalasi qanday hal qilinganiga bir nazar tashlaylik.

T.Azizov Xusayn Boyqaroni o'ta madaniyatli va shoirtabiat shohsifatida tasavvur qiladi va obrazning xarakterini ochishda aktyorning nutqi ham yumshoq ohanglarda jaranglashini istaydi. Shuning uchun ushbu rolni Muhammadali Abduqunduzovga topshiradi. Nega deganda, Muhammadali Abduqunduzovda shoirlarga xos tabiat, madaniyatli tashqi qiyofa, nutqiy ohanglarida yumshoqlik kabi o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Aktyor obrazni gavdalantirishda rejissorning maqsadini amalga oshirishga harakat qilgan. Lekin shuni aytib o'tish kerakki, yosh Husayn qatnashadigan barcha sahnalarda rejissor tomonidan ham, aktyor tomonidan ham maqsad va vazifalar aniq hal qilinmaganligi uchun obrazning xakteri to'la ravishda ifodalanmagan. Yosh Husayn Boyqaro spektaklning birinchi, to'rtinchi va yettinchi ko'rinishlarida ishtirok

etadi. Masalan, birinchi ko'rinishda Husayn Boyqaro poytaxtda isyon ko'tarilgani va bunga tezda chora ko'rish kerakligi to'g'risida Navoiy bilan maslahatlashish uchun kelganida amir Majdiddin gapga aralashib isyonchilar ustiga tezda qo'shin tortishni maslahat beradi. Navoiy esa yurtni tinchitish kerakligi, Yodgor Muhammadni daf qilish ixtiyorini esa o'z bo'yniga butunlay olishini aytadi. Mana shu sahnada Husayn Boyqaro - Abduqunduzovning munosabatlari noaniq. Kirib kelgandagi va Navoiyni kuzatib qolgandagi so'z xatti-harakatlarida bir xillik seziladi. Balki ikki do'stning aloqalari avvaldan mustahkam bo'lganligi munosabatlarda biroz bo'rttirilganida, tomoshabin uchun ham maqsadlar aniqroq ko'rinaridimi? Undan tashqari, to'rtinchi ko'rinishda, ya'ni Husaynning ishratxonasida bo'ladigan voqealar eng hal qiluvchi ko'rinishlardan hisoblanadi. Muallif bu ko'rinishdagi so'zlarni nihoyatda keng ma'noda qo'llagan. Aynan mana shu ko'rinishda Majdiddin va Husayn Boyqaro o'rtasida bo'lib o'tgan dialogda shoh bilan Navoiy o'rtasidagi do'stlikni ifodalovchi fikr mahorat bilan tasvirlangan:

Majdiddin: Alisher taxtingiz atrofida aylanib yurgan zaharli ilon.

Husayn: Ig'vo! Hasad! Alisher hech qachon mening zabun bo'lishimni istagan emas. Men Alishersiz, tebranib turgan taxtimni idora qilolmayman.

Majdiddin: Shohim, agar taxtingizni tebranib turgan Alisherning o'zi bo'lsa-chi?

Husayn: Hasad! Ig'vo!

Majdiddin (Shohga maqtub uzatib): Mana, Balxdan maktub bor.

Bu ko'rinishda aktyorlar uchun o'ta murakkab jarayon bor. Chunki so'z ohangi munosabatlarga asoslarga. Bu yerda gap ma'no ohangining ifodalanishida emas, qochirimlar o'yini ustida boradi. Qahramonning ichki dunyosi boshqacha, tashqi nutqiy ifodasi boshqacha tempo-ritmda. Majdiddin – R.Karimov xatti-harakatlarida, nutqiy ohanglarda haqiqatni yashirishga intilish, sir ochilib qolishidan qo'rqish harakatlari sezilmaydi. To'g'ri, aktyor bunday harakat qilsa, shahanshoh oldida o'zini fosh qilib qo'yishi mumkin, lekin shunday bo'lgan taqdirda ham u Majdiddinning makkorligini va buni yashirish uchun shahanshohga mehribon va g'amxo'r bo'lib ko'rinishga harakat qilayotganini ayrim chizgilarda ifodalashi zarur edi.

M.Abduqunduzov nutqida, munosabatlarida bu ig'vo va bo'xtonlar do'sti Alisher Navoiy ustida borayotganiga nisbatan nihoyatda sust xatti-harakatni qo'llaydi. Psixologik pauza va tempo-ritm masalasidan foydalanmagan. Vaholanki, dramaturg tilidagi ifodali xatti-harakatning muvaffaqiyati aktyorning psixologik pauzalardan qanday foydalanganligiga bog'liq bo'ladi. M.Abduqunduzovning ichki kechinmalari yengil kechadi, shuning uchun Majdiddinning hiylalariga osongina ishonadi. R.Karimovning ham shohni ishontirish bobidagi xatti-harakatlari o'z-o'zidan susayib ketadi.

Tarixdan ma'lumki, temuriy hukmdorlar orasida ayniqsa, Sulton Husayn Mirzo Boyqaro alohida o'rin tutadi. Uning saltanati soyasida ne-ne fazlu kamol sohiblari

qo'nim topgani, ilmu hikmat benihoya rivojlangani, el-ulus tinchligu omonlikda umr kechirgani sir emas. Ul zot muruvvatli shoh sifatida Alisher Navoiy bobomizga sirdosh do'st, hamdamu hamfikir birodar bo'lgan ekan. Demakki, aktyor Husayn Boyqaroning o'ziga xos xarakterini yaratish uchun ko'proq o'zidan emas, tarixiy manbalarga ham tayanish maqsadga muvofiqdir.

Yettinchi ko'rinishda M.Abduqunduzov harakatlarida biroz ildamlilik seziladi. Navoiy bilan Guli o'rtasidagi muhabbatdan bexabarligi va Majdiddinning hiylasiga tutilib kelganidan qattiq afsuslanish va do'sti Alisherdan ayrilish holatlari yaxshi ifodalangan. Uning nutq ohanglarida do'stiga bo'lgan muhabbat cheksiz ekanligi seziladi.

Husayn Boyqaro va Navoiy o'rtasidagi do'stlikni tiklashga qaratilgan sahnaviy talqin ko'pchilikka ma'qul bo'ldi. Ayniqsa spektaklning oxirgi ko'rinishlari juda ta'sirli chiqqanligi alohida tilga olingan. Navoiy go'yo o'z nazarida adabiyotga qarataroq, armon bilan chiqib keta boshlaydi. Husayn Boyqaro esa behol afsus-nadomatlar, pushaymonliklar girdobida, cheksiz dard bilan olovli qon sachragan zaminda behol o'tirganicha qoladi

Xulosa qilib aytish kerakki, teatr jamoasi va sahnalashtiruvchilar asardagi murakkablikdan chiqqa oldilar. Navoiy va Husayn Boyqaro obrazini yoshlik va keksalik davriga bo'lib talqin etilishi bilan chiroyli ansambl tashkil topdi.

T.Azizov rejissorlik tajribasi davomida rejissorning aktyorlar bilan ishlash uslubiga aniqlik kiritdi. Rejissor faqat postanovkachi emas, balki sahna nutqining ko'ngildagidek chiqishida aktyorga ko'makdoshdur, degan fikrdan kelib chiqib, so'z ustida ishlashda Mannon Uyg'ur va T.Xo'jayevlarning yo'lini davom ettirdi. "Keyingi paytlarda, - degan T.Azizov, - rejissorlarning aktyorlar bilan ishlash uslubi biroz o'zgargan, ya'ni so'zning qudratiga umuman e'tibor bermasligi sezilib qoldi. Natijada aktyor o'z nutqi ustida ishlamay qo'yadilar. Yana shu ham sir emaski, rollar taqsimlanib, stol atrofidagi so'z ustidagi ishlash jarayoni nomigagina bo'lib, sahnada daftar bilan repetitsiya qilinadi. Repetitsiya jarayonida o'zidan so'z qo'shish holatlari ham kuzatiladi. Bu holat avtor tili va personajlar nutqiga putur yetkazadi. Asarning saviyasi ham o'z-o'zidan tushib ketadi. Men teatrda paydo bo'layotgan bunday illatni yo'q qilishga urindim.

Darhaqiqat, 80-yillarda rejissorlarda aktyorlar bilan ishlash uslubi bir oz o'zgargan edi. Ya'ni rejissorlarda muallif tiliga bee'tiborsizlik bilan yondashish rasm bo'lgan edi. Bunda aktyorlar stol atrofidagi repetitsiya jarayonini kam o'taydi. Tez sahna maydonidagi ijodga o'tib ketadilar. Avval etyud shaklida repetitsiya qiladilar. Personajlar nutqi ham o'z holicha ijro etiladi. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, bu muallif tilining buzilishga olib keladi. Chunki repetitsiya jarayonida so'zning tub ma'nosiga e'tibor bermaydi, so'z kelmasa, shunga yaqinroqso'z topib ishlatishga urinadilar. Bunda sahna nutqiga putur yetadi. She'riy dramalarda-chi? She'riy dramalarda faqat

matn yodlansa-yu, rejissor yoki aktyor asosiy mantiqni ochib beruvchi so'zlarning tub ma'nosini ochib berish uchun aniq urg'ular, pauzalar belgilamasa, bunda she'riy nutqqa putur yetadi. She'riy matn she'riyligicha qolaveradi.

T.Azizov o'z ishlarida bunday uslubdan qochib ulug' aktyorlar va rejissorlar an'alarini tiklashga urindi. So'z ustida ishlashda ham eski an'analarni davom ettirdi. So'z ustida aktyorlar bilan ishlashda muallifning g'oyasiga monand xatti-harakat qilishga, obrazlardagi nutqni xarakterini ochuvchi so'zlarni ishlashda intonatsiyalarga e'tibor beradi. Kerak bo'lsa, so'z ustida aktyorlar oylab ishlaydi. Qachonki aktyorlar muallif so'zlarini o'ziniki qilib olsagina sahna maydonidagi ijodga o'tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Холиқулова, Г.Э. (2007). Саҳна нутқи. Тошкент-2007 й.
2. Холиқулова, Г.Э. People's poet of uzbekistan mukhammad yusuf – singer of the native land and love. International conference. Pages 154-159.
3. Гўзал Эркиновна Халикулова. Саҳна нутқи ва жонли тил. Мулоқот, Тошкент. 35 – бет.
4. Гўзал Эркиновна Халикулова. Маннон Уйгур – выдающийся режиссёр узбекского театра и мастер по сценической речи. Эдебиет және өнер институты, Алматы. Вопросы литературы и искусства им. М.Ауэзова. 59-60 стр.
5. Гўзал Эркиновна Халикулова. Саҳна нутқи ва жонли тил. Мулоқот, Тошкент. 35-бет.
6. ГЭ Халикулова. Актёрлар нутқда Навоий шеърляти. Театр, Тошкент. 10-11- бетлар.
7. Гўзал Эркиновна Халикулова. Саҳнада тарихий мухит тасвири. Театр, Тошкент. 20-21- бетлар.
8. Гўзал Эркиновна Халикулова. Искусство речи в историко-поэтических спектаклях. / Искусство Узбекистана. История и современность. Материалы научно-практической конференции молодых ученых. Ташкент: Поколение нового века. Стр. 50-51.
9. Гўзал Эркиновна Халикулова. Замонавий театр ҳақида шахсий мулоҳазалар. Қалдирғоч, Тошкент. №1(4). 2 – бет.
10. Гўзал Эркиновна Халикулова. Вопросы сценической речи в интерпретации узбекской исторической драмы (80-90-е годы). Автореферат 2004 г. стр. 1 – 21.
11. ГЭ Халикулова. Саҳнани актёр безайди. Театр, Тошкент, 22-23-бетлар
12. Guzal Khalikulova. “Мирзо Улуғбек” тарихий драмасида тил масалалари. /Сб науч. тр. “Нафосат”. 144-147.
13. Гўзал Эркиновна Халикулова. Саҳна нутқи (тарихий драмалар талқинида). Ўқув қўлланма. Тошкент. ЎзДСИ. 1 – 9 – бет.

14. Гўзал Эркиновна Халикулова. Husni ta'il - искусство силы. Журнал Театр, Ташкент. № 6. 14-15 стр.

15. Гўзал Эркиновна Халикулова. Чувство уважения. Журнал Калдиргоч, Ташкент. Стр 41.

16. Гўзал Эркиновна Халикулова. Гигиена и техника чтения книг. Журнал Калдиргоч, Ташкент. 21(42).

17. Гўзал Эркиновна Халикулова. Муסיкий ижрочиликда ёшларнинг фаоллигини ошириш ва уни ривожлантириш масалалари. Тошкент ТДМИ, (Тўплам).

18. Гўзал Эркиновна Халикулова. Санъат равнақи йўлида. Журнал Қалдирғоч, Тошкент. 2010/1.

19. Гўзал Эркиновна Халикулова. Хассос сўз устаси. “Мухсин Ҳамидов (Бадий сўз устаси)” номли монографияси учун мақола 2010. ЎзДСИ. 8 – бет.

20. Гўзал Эркиновна Халикулова. Маънавий баркамоллик давр талаби. ЖизПИ, тўплами. 363 – бет.

21. Гўзал Эркиновна Халикулова. Ўзбекистон давлат санъат институтида кадрлар тайёрлаш сифатини яхшилаш ва соҳани ривожлантиришда амалга оширилаётган ишлар. Ўзбекистон санъати ва маданиятида замон қаҳрамони образини яратиш муаммолари ва ечимлари” Тўплам. ЎзДСИ.

22. Гўзал Эркиновна Халикулова. Юрт тараққиёти, халқ фаровонлиги ҳамда баркамол авлодни тарбиялашда санъатнинг роли. Халқаро Симпозиум материаллари тўплами.

23. Гўзал Эркиновна Халикулова. Формирование сценической речи в профессиональных спектаклях и роль системы Станиславского в развитии театрального искусства. Брянск, Сборник материалов VI Международного симпозиума. Стр. 219 – 225.

24. Гўзал Эркиновна Халикулова. Замонавий раҳбар аёлнинг профессионал нутқини оширишга доир. 2012 й. “Аёл – маънавият гулшани” ЖизПи., 4-Республика илмий-амалий конференцияси Тўплам.

25. Гўзал Эркиновна Халикулова. Актёрнинг сахна нутқи маҳоратини эгаллашда нафасни такомиллаштирувчи янги услубий изланишлар. 2012/3/27. Глобаллашув жараёнида хореография санъати соҳасида миллийликни сақлаш муаммолари 2- республика конференцияси. Тошкент.

26. Гўзал Эркиновна Халикулова. Театрларда адабий тил масъулияти. 2013 й. Янги давр санъати: анъанавийлик ва трансформацион жараёнлар. Тошкент, Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 82-84 бет.

27. Гўзал Эркиновна Халикулова. Спектакль яратишда сўз ва ҳаракат уйғунлиги масалалари. 2014. Тошкент.: “Мумтоз сўз”. 110-114 бетлар.

28. Гўзал Эркиновна Халикулова. Саҳна асарларида қаҳрамон характери яратиш масалалари. Республика илмий-назарий ва амалий конференция материаллари. Тошкент: Наврўз. 112 – 117 бетлар.

29. Гўзал Эркиновна Халикулова. Институтда олий малакали илмий ва илмий педагог кадрлар тайёрлашнинг долзарб муаммолари. Театр// – Тошкент: 2014. (3). 9 -10 – бет.

30. Гўзал Эркиновна Халикулова. Сўз масъулиятини англаш ҳам санъат. Хуррият// – Тошкент. (43) 6-7 бетлар.